

OLMOSH SO'Z TURKUMINING O'QIB TUSHUNISHGA TA'SIRI

Xosiyat Navruzova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21273676>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi olmosh so'z turkumining o'qib tushunish jarayoniga ta'siri yoritiladi. Matnda olmoshlar takrorning oldini olish, gaplar va fikrlar o'rtasidagi mazmuniy bog'lanishni ta'minlash, ilgari aytilgan birlik yoki fikrga ishora qilish vazifasini bajaradi. O'quvchi olmosh qaysi so'z, jumla yoki mazmuniy birlikka ishora qilayotganini aniqlay olmasa, matn mazmunini to'liq anglashda qiyinchilik yuzaga keladi. Tezisdagi o'quvchilar tomonidan kishilik va ko'rsatish olmoshlarini tushunish bilan bog'liq topshiriqlar natijalari tahlil qilinadi. Tahlil asosida olmoshlarning matndagi ishoraviy va bog'lovchi vazifasini o'rgatish o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: o'qib tushunish, olmosh, kishilik olmoshi, ko'rsatish olmoshi, ishora qiluvchi birlik, matniy bog'lanish, lingvistik bilim.

Annotation. This thesis discusses the influence of pronouns on the process of reading comprehension. In a text, pronouns help avoid repetition, ensure semantic connection between sentences and ideas, and refer to a previously mentioned word, sentence, or concept. If a student cannot identify what word, sentence, or semantic unit a pronoun refers to, difficulties may arise in fully understanding the text. The thesis analyzes the results of tasks related to students' understanding of personal and demonstrative pronouns. Based on the analysis, it is argued that teaching the referential and connective functions of pronouns in a text is important in developing reading comprehension skills.

Keywords: reading comprehension, pronoun, personal pronoun, demonstrative pronoun, referential unit, textual cohesion, linguistic knowledge.

Аннотация. В данном тезисе рассматривается влияние местоимений на процесс читательского понимания. В тексте местоимения служат для предотвращения повторов, обеспечения смысловой связи между предложениями и мыслями, а также для указания на ранее названное слово, предложение или понятие. Если учащийся не может определить, к какому слову, предложению или смысловой единице относится местоимение, у него возникают трудности в полном понимании содержания текста. В тезисе анализируются результаты заданий, связанных с пониманием учащимися личных и указательных местоимений. На основе анализа обосновывается важность изучения указательной и связующей функций

местоимений в тексте при формировании навыков читательского понимания.

Ключевые слова: читательское понимание, местоимение, личное местоимение, указательное местоимение, указательная единица, текстовая связность, лингвистические знания.

Matnni to'g'ri va chuqur anglash zamirida o'quvchining lingvistik bilim darajasi muhim o'rin tutadi. O'qib tushunish jarayoni leksik birliklarni idrok etish bilan birga, grammatik va sintaktik elementlarni to'g'ri talqin qilishga asoslanadi. Ayniqsa, badiiy matnlar turli ma'no qatlamlari, majoziy ifodalar va matn mazmuniga bog'liq tildan foydalanilishi bilan boshqa matnlardan farq qiladi. Ularni tushunish uchun o'quvchidan so'z boyligi va til birliklarining qanday vazifa bajarishini bilishi talab qilinadi.

O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish masalasi ko'plab tadqiqotchi va amaliyotchi o'qituvchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan, K. Mavlonova, I. Azimova, F. Sharopova, N. Hakimova, D. Normuminovalarning ilmiy izlanishlarida o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati, bu jarayonning ta'lim samaradorligidagi o'rni, shuningdek, o'quvchining tafakkurini shakllantirishdagi didaktik va metodik jihatlari keng yoritilgan. Mavjud tadqiqot ishlarida asosan o'qib tushunish ko'nikmasining ona tili ta'limidagi ahamiyati, uni shakllantirish, o'qib tushunish jarayonida matn bilan ishlash usullari tahlil qilingan bo'lib, lingvistik bilimning o'qib tushunishga qanchalik ta'sir etishi maxsus o'rganilmagan muammo sifatida qolmoqda.

Matndagi ayrim birliklar, xususan, olmoshlar o'quvchidan oldingi yoki keyingi gaplarga murojaat qilishni, ishora qilingan birlikni aniqlashni talab qiladi. Shu jihatdan olmosh so'z turkumi o'qib tushunish jarayonida muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Olmoshlar matnda takrorning oldini oladi, gaplar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi, mazmuniy izchillikni saqlaydi. Biroq o'quvchi olmoshning qaysi birlikka ishora qilayotganini aniqlay olmasa, matn mazmunini to'liq anglashda qiyinchilik yuzaga keladi. Ayniqsa, kishilik va ko'rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarda o'quvchi matnning oldingi qismidagi ma'lumotni xotirada saqlashi, uni olmosh bilan bog'lashi va umumiy mazmunga mos talqin qilishi kerak bo'ladi.

Tajriba jarayonida o'quvchilarga olmoshlarning matndagi vazifasini aniqlashga doir topshiriqlar berildi. Jumladan, "Sen uchun bizlar parvona..." misrasi asosida "Sen" olmoshi orqali kimga yoki nimaga murojaat qilingani so'raldi. O'quvchilarning 37 foizi to'g'ri javobni topgan. Matn mazmuniga ko'ra

“Sen” kishilik olmoshi “Sug‘diyona”, ya’ni Vatan tushunchasiga ishora qiladi. Noto‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar olmosh bilan ishora qilingan birlik o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishni aniqlay olmagan.

Yana bir topshiriqda “Unda dunyodagi hamma narsa bor” gapidagi “unda” olmoshi qaysi jumla o‘rnida qo‘llangani so‘raldi. O‘quvchilarning 28 foizi to‘g‘ri javob yoza olgan. Matnda bu olmosh “bularning uyi salkam ajoyibxona” jumlasiga ishora qiladi. Javoblar tahlili o‘quvchilarning ko‘pchiligi “unda” olmoshini “dunyo”, “hovli”, “qushxona” kabi yaqin yoki umumiy so‘zlar bilan bog‘laganini ko‘rsatdi. Bu holat o‘quvchilarda olmoshning matndagi aniq ishorasini topish ko‘nikmasi yetarli shakllanmaganidan dalolat beradi.

“Boshqa birov shunday deganda ishonmagan bo‘lardim” gapidagi “shunday” olmoshi ham o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirgan. Mazkur topshiriqda o‘quvchilarning 30 foizi to‘g‘ri javob bergan. “Shunday” olmoshi matnda ilgari aytilgan fikrni umumlashtirib kelgan. U “A‘lochi bo‘laman desangiz, o‘qituvchi topshiriq bermasa ham o‘tgan darslarni takrorlab borish kerak” degan fikrga ishora qiladi. O‘quvchilarning katta qismi ushbu bog‘lanishni aniqlay olmagan. Demak, ko‘rsatish olmoshlarini tushunish alohida so‘z ma‘nosini bilish bilan cheklanmaydi; o‘quvchi matn ichidagi mazmuniy aloqani ham kuzatishi lozim.

Olmoshlarni tushunish xotira, e‘tibor va kontekstni kuzatish bilan bog‘liq kognitiv jarayondir. O‘quvchi olmoshni ko‘rgan zahoti uning ishora qilayotgan birligini topishi, uni ongida faol saqlashi va gap mazmuni bilan bog‘lashi kerak. Matnda ishora qilingan birlik uzoqroqda joylashgan bo‘lsa yoki bir nechta ehtimoliy birlik mavjud bo‘lsa, tushunish jarayoni murakkablashadi.

Ying-jing Zhao tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko‘rsatish olmoshlari bolaning til o‘zlashtirilishidagi dastlabki birliklaridan biri sifatida qayd etiladi. Tadqiqotga ko‘ra, bola bu turdagi olmoshlarni avval vizual, jismoniy harakatlar (imo-ishora, ko‘z qarashi, tovushli urg‘u) asosida tushunadi. Bola “unda” degan birlikni eshitganda yoki ko‘rganda biror vizual yoki jismoniy ishora bilan bog‘liq reaksiya kutadi[6]. Olmosh ishtirok etgan gaplarda uning qaysi birlikka ishora qilayotgani ba‘zan gap oxirigacha aniq bo‘lmaydi. Bu holat o‘quvchidan oldingi ma‘lumotni xotirada saqlab turish va yangi ma‘lumot bilan bog‘lashni talab qiladi. Tezkor xotiraga tushadigan bunday yuklama matn mazmunini anglashni qiyinlashtiradi[5]. Olmosh so‘z turkumini tushunish konteksga bog‘liq bo‘lgan hodisa bo‘lib, o‘quvchilarning ushbu birlikni yozma matnda izchil talqin qila olishi uchun o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda lingvistik birliklar bilan izchil ishlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, olmosh so‘z turkumi o‘qib tushunish jarayonida matn qismlarini bog‘lovchi muhim vosita hisoblanadi. O‘quvchi olmoshning qaysi birlikka ishora qilayotganini aniqlay olsa, matn mazmunini izchil va chuqur anglaydi. Tajriba natijalari esa o‘quvchilarda aynan olmoshlarning matndagi ishoraviy vazifasini tushunishda muayyan qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda olmoshlar bilan ishlashga alohida e‘tibor qaratish, matndan ishora qilingan birlikni topish, olmoshni o‘zi bog‘langan so‘z yoki fikr bilan qiyoslash, gaplararo bog‘lanishni aniqlashga doir topshiriqlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. Ona tili ta‘limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta‘lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 215–224.
2. Hakimova N. O‘qib tushunish malakasini shakllantirishga oid yondashuv va tamoyillar. Ona tili ta‘limida o‘qitish va baholash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 31–33.
3. Mavlonova K. O‘quvchilarda matn o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta‘lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020.
4. Normuminova D. O‘qish savodxonligining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar. “Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. 2022.
5. Rayner, K. The perceptual span and peripheral cues in reading. Cognitive Psychology, 7, 1975. 65-81.
6. Yi-jing Zhao. Children's Acquisition of Demonstrative Pronouns in Mandarin Chinese. National Taiwan Normal University, Linguistic Program – Taiwan, 2007. – B. 532–541.
7. Sharopova F. Ona tili ta‘limida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari. Ped. fan. bo‘yicha fals. dok...ri (PhD) diss. 2025 – B. 134.